



Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning jazoni o'tash joylarida ijtimoiy moslashuvini o'rganishga oid nazariy yondashuvlar

Nabiyev Nodirbek Alijonovich

Andijon davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning jazoni o'tash muassasalarida ijtimoiy moslashuv jarayoniga oid nazariy yondashuvlar falsafiy va sotsiologik nuqtai nazardan tahlil etiladi. Tadqiqotda shaxsning ijtimoiylashuvi, ijtimoiy muhitga moslashuvi hamda qayta ijtimoiylashtirish mexanizmlari penitentsiar tizim sharoitida ko'rib chiqiladi. Muallif jazo ijro tizimida mahkumlarning jamiyatga qayta integratsiyalashuvini ta'minlashda qadriyatlar, muhit, ta'lim va psixologik qo'llab-quvvatlashning o'rni muhim ekanligini ta'kidlaydi.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические подходы к изучению процесса социальной адаптации лиц, лишённых свободы, в учреждениях исполнения наказаний с философских и социологических позиций. Анализируется механизм социализации, ресоциализации и адаптации личности в условиях пенитенциарной среды. Автор подчёркивает значимость ценностной системы, образовательных программ и психологической поддержки в успешной реинтеграции осуждённых в общество после отбытия наказания.

Annotation: This article explores theoretical approaches to examining the social adaptation of individuals deprived of liberty within correctional institutions from philosophical and sociological perspectives. The study analyzes mechanisms of socialization, resocialization, and adaptation in the penitentiary environment. The author emphasizes the importance of value transformation, educational initiatives, and psychological support in ensuring successful reintegration of inmates into society after serving their sentence.

Zamonaviy falsafiy manbalarda "ijtimoiy moslashuv" tushunchasi tobora ommalashib kelmoqda. Bizningcha bunga sabab shuki, zamonaviy insonning global tezlikdagi o'zgarishlar jamiyati "hayot moslashuvi" tushunchasiga tenglashmoqda. Insonlar uzluksiz ijtimoiy o'zgarishlar muhitida yashash va avvalgi mexanizmlar unumsiz bo'lganda yangi tendensiyalarni ishlab chiqishga majbur bo'moqda. Bu ayniqsa, yangi rivojlanish davrini boshlagan O'zbekiston jamiyati uchun ahamiyatlidir. Shundan kelib chiqib, ko'plab olimlar insonlarning eski davr ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlariga ko'nikishlarini



nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq etmoqdalar. Shu yo‘nalishda xorijiy olimlar ulkan ilmiy bazaga ega bo‘lganlar shular qatorida T.I.Zaslavskaya, L.V.Korel, N.F.Naumova, M.A.Shabanova va boshqalarni kiritish mumkin⁹. Xususan, L.V.Korel moslashuv jarayonining ko‘p qirrali va ko‘p jihatli ekanligini ta’kidlaydi. Uning talqinida moslashuv – bu “ijtimoiy tizimning (shaxs, ijtimoiy guruh, tashkilot, jamoa, institut, jamiyat, sivilizatsiya va hokazo) ichki va tashqi o‘zgarishlarga moslashish holati yoki jarayoni bo‘lib, u ijtimoiy xulq-odatlari, ijtimoiy amaliyotlar, qadriyatlar, haqiqatni axborot-interpretativ tarzda aks ettirish usullari (konstruksiya qilish, qayta konstruksiya qilish) hamda tizimning ichki tuzilishi va funksiyalarini o‘zgartirish orqali amalga oshadi”¹⁰.

Ko‘pchilik tadqiqotlar ijtimoiy moslashuv jarayonini “erkin” fuqarolar kontekstida o‘rganishga qaratilgan, holbuki mahbuslar muhitida bu jarayonni o‘rganishga juda kam e’tibor qaratiladi. Bu to‘liq asossiz, chunki ushbu guruh mamlakat aholisi tarkibida muayyan ulushni tashkil qiladi va ularning katta qismi ozodlikka chiqqach, avvalgi hayot tarziga qaytadi. Bundan tashqari, hozirgi jamiyatda jinoyatchilik subkulturasining keng tarqalishi kuzatilmoqda. Bu aksmadaniyat asosan, mahbuslar muhitida shakllanib, u yerda ijtimoiy moslashuv jarayoni davomida singib ketgan shaxslar orqali jamiyatga kirib boradi. Shu munosabat bilan, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning ijtimoiy moslashuvi faqat siyoq ma’noda emas, balki ulkan ijtimoiy makonga ta’sir etadi: u ommaviy qadriyatlarda, madaniyatga, iqtisodiyot tarmoqlari, siyosat va hattoki san’at kabi qator sohalargacha kirib boradi. Soha izlanuvchilaridan biri, olim A.N.Oleyikning fikriga tayanib, jazoni ijro etish muassasasi va sovet jamiyati ijtimoiy muassasa sifatida bir-biriga lol qoldiradigan darajada teng. Bu sababni olim mahkumlar hamda jazoni ijro etish muassasasi xodimlari o‘rtasidagi munosabatni, ozod jamiyatdagi ma’muriyat hamda oddiy insonlar munosabatlaridagi farqini izohlaydi. Olim ta’kidlaganidek, bugungi ideal jamiyatlarda ham aholining beshdan bir qismi bir marta sudlangan yoki ularning yaqin qarindoshlari sudlangan bo‘lib, bu sof madaniyatning taraqqiyotiga va qadriyatga aylanishiga salbiy ta’sir qilmoqda.

⁹ Корель Л.В. Социология адаптации: Вопросы теории, методологии и методики. Новосибирск: Наука, 2005; Шабанова М.А. Ценность и “цена” свободы выбора в процессе социальной адаптации к рынку // Социологические исследования. 1995. № 4; Шабанова М.Л. Социальная адаптация в контексте свободы // Социологические исследования. 1995. № 9; Наумова Н.Ф. Жизненная стратегия человека в переходном обществе // Социологический журнал. 1995. № 2.

¹⁰ Корель Л.В. Социология адаптации: Вопросы теории, методологии и методики. Новосибирск: Наука, 2005.



Shuningdek, mahbuslarning qamoqxona muhitida moslashuv jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari mavjudligi e’tiborga loyiqdir. Bu xususiyatlar avvalo erkinlikning yo‘qligi sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lib, M.A.Shabanova tomonidan ishlab chiqilgan strukturaviy-faoliyat yondashuvi nazariyasiga ko‘ra, erkinlik yo‘qligi moslashuv jarayonini tushuntirish va amalga oshirishda asosiy kategoriya hisoblanadi¹¹.

Hukm etilgan shaxsni jamiyatdan ajratish - bu erkinlikdan mahrum qilish bo‘lib, u shaxsni turli turdagi jazoni ijro etish muassasalariga joylashtirish orqali amalga oshiriladi: manzilm koloniyalar, umumiy, qattiq yoki maxsus tartibdagi jazoni ijro etish muassasalari. Sud hukmi chiqarilgan vaqtda 18 yoshga yetmagan shaxslar umumiy yoki kuchaytirilgan tartibdagi tarbiyaviy koloniyalarga yuboriladi. Shaxslar erkinligidan mahrum etish, Jinoyat kodeksiga asosan keyingi har qanday jazoni oldini olish, ijtimoiy adolatni o‘rnatish, mahkumlarni ma’nan reabilitatsiya qilish va yangi jinoyatlar motivlarini bartaraf qilishni maqsad qiladi.

Mahbusni jazolash orqali ijtimoiy adolatni tiklash nafaqat jamiyat, balki jabrlanuvchi shaxsga nisbatan ham amalga oshiriladi. Jamiyatda ijtimoiy adolat imkon qadar tiklanadi: davlat jarima, mulkni musodara qilish, erkinlikdan mahrum qilish jazosi davomida mahbuslar tomonidan bajariladigan majburiy ishlar va boshqa jazo turlari orqali yetkazilgan zararlarni ham deyarli qoplaydi. Bu fuqarolarni ishontiradiki, davlat jinoyatchini jazolay oladi va buni qonun doirasida amalga oshiradi. Jabrlanuvchiga nisbatan ijtimoiy adolat uning jinoyat bilan buzilgan qonuniy manfaatlari va huquqlarini himoya qilish orqali tiklanadi. Shunday qilib, har qanday jazo jabrlanuvchiga yetkazilgan zararlarni qoplash imkoniyatini ta’minlashi kerak. Shu bilan birga, jazoning maqsadi mahbusga azob yetkazish emas. Biroq ba’zi mualliflar ta’kidlaydiki, erkinlikdan mahrum qilishning maqsadlariga erishish har doim ham butun jazo tizimining maqsadlariga erishishga yordam bermaydi va jinoyatchini jamiyatdan ajratish strategiyasi o‘z samarasini yo‘qotmoqda¹².

Bizningcha, jinoyat sodir etgan shaxslar joylashtirilgan sharoitlar o‘ziga xos tarzda quyidagilarni taqazo etadi: ijtimoiy moslashuvga oid adabiyotlar, ilmiy izlanishlardagi

¹¹ Шабанова М.А. Ценность и “цена” свободы выбора в процессе социальной адаптации к рынку.

¹² Кудрявцев В.Н. Стратегии борьбы с преступностью. С. 169.



xulosalarga tayanib, mahbuslar joylashtirilgan maskandagi ijtimoiy moslashuv xususiyatlarini nazariy-metodologik asoslarini yaratish. Shu qatorda, biz ijtimoiy moslashuvni tadqiq etish yuzasidan falsafa, sotsiologiya va ijtimoiy-psixologik fanlaridan olingan tajribagalarga tayanishimiz lozim bo'ladi. Bundan yagona maqsad belgilangan tadqiqot obyekti muammonsini ilmiy asosga qo'yish va ilmiy izlanish oldida turgan vazifalarni hal qilishda yangi rakursdan metodologik umumiy konstruktsiyani yaratishdir.

Falsafiy manbalarda ijtimoiy moslashuv odatiy tarzda inson faoliyati davomiyligi sifatida talqin qilinadi, u o'z-o'zidan shakllanuvchi obyektiv normalar, insonning borliqqa nisbatan barqaror va takrorlanib boruvchi sharoitlarga o'zaro munosabat usullarini ko'rsatadi. Falsafiy konteks doirasida "ijtimoiy moslashuv - bu individ yoki guruhning borliqqa, ijtimoiy muhitning normalari va qadriyatlariga faol moslashuv jarayoni sifatida qaraladi"¹³.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Корель Л.В Социология адаптации: Вопросы теории, методологии и методики. Новосибирск: Наука, 2005;
2. Шабанова М.А. Ценность и "цена" свободы выбора в процессе социальной адаптации к рынку // Социологические исследования. 1995. № 4; Шабанова МЛ Социальная адаптация в контексте свободы // Социологические исследования. 1995. № 9;
3. Наумова Н.Ф. Жизненная стратегия человека в переходном обществе. Социологический журнал. 1995. № 2.
4. Корель Л.В. Социология адаптации: Вопросы теории, методологии и методики. Новосибирск: Наука, 2005.
5. Шабанова М.А. Ценность и "цена" свободы выбора в процессе социальной адаптации к рынку.
6. Кудрявцев В.Н. Стратегии борьбы с преступностью. С. 169.
7. Философский энциклопедический словарь. М., 1998. С. 8.

¹³ Философский энциклопедический словарь. М., 1998. С. 8.